TA'LIM TIZIMI TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishishi 3-bosqich talabasi
Nurmuhammadova Gulnoza Muhitdin qizi
+998944755605
Xursanova O'g'iloy Baxriddin qizi
ogiloyxursanova4@gmail.com, +99888 818 24 04
Ilmiy rahbar: Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483
s.jamoldinova@cspu.uz, +998917766446
Chirchiq,O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimi tushunchasining nazariy mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Ta'lim tizimining ijtimoiy institut sifatidagi funksiyalari, inson kapitalini shakllantirishdagi roli hamda innovatsion rivojlanish jarayonlaridagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, sifat ko'rsatkichlarini oshirish va uzluksiz ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimini takomillashtirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, jamiyat taraqqiyoti, inson kapitali, uzluksiz ta'lim, ta'lim sifati, innovatsion rivojlanish, pedagogik jarayon, modernizatsiya, ijtimoiy institut, bilimlar iqtisodiyoti..

Аннотация. В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы сущность понятия системы образования, её структурные компоненты, а также роль в развитии общества. Обоснованы функции системы образования как социального института, её значение в формировании человеческого капитала и в процессах инновационного развития. Кроме того, освещены приоритетные направления модернизации системы образования в условиях глобализации, повышения качества образования и развития непрерывного образования. Результаты исследования раскрывают возможности обеспечения устойчивого развития общества посредством совершенствования системы образования.

Ключевые слова: система образования, развитие общества, человеческий капитал, непрерывное образование, качество образования, инновационное развитие, педагогический процесс, модернизация, социальный институт, экономика знаний.

Abstract. This article analyzes the theoretical essence of the concept of the education system, its structural components, and its role in societal development from a scientific and pedagogical perspective. The functions of the education system as a social institution, its role in the formation of human capital, and its importance in innovation-driven development processes are substantiated. Furthermore, the priority directions for modernizing the education system in

the context of globalization, improving the quality of education, and developing lifelong learning are highlighted. The findings reveal opportunities to ensure sustainable societal development through the improvement of the education system.

Keywords: education system, societal development, human capital, lifelong learning, quality of education, innovation-driven development, pedagogical process, modernization, social institution, knowledge economy.

KIRISH

Akademik halollik – bu ta'lim jarayonida bilim olish va o'zlashtirishda halollik, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, shuningdek, plagiat, aldov va boshqa noo'rin harakatlardan voz kechish tamoyilidir.

Akademik halollik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mustaqil ish – Barcha topshiriqlar va loyihalarni o'z mehnatingiz bilan bajarish.
2. Plagiatdan qochish – Boshqalarning g'oyalari va ishlarini manbani ko'rsatmasdan o'zlashtirmaslik.
3. Ochiqlik va adolat – Boshqalarning bilim olish jarayoniga xalaqit bermaslik va adolatli raqobat qilish.
4. Mas'uliyat – O'z harakatlaringiz va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni qabul qilish.

Akademik halollik – bu nafaqat talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi ishonchni shakllantiradi, balki chinakam bilim va malaka egasi bo'lish uchun muhim qadamdir. Halollikni qadrlash kelajakda ham jamiyat uchun mas'uliyatli va adolatli liderlarni yetishtirishga xizmat qiladi.

2024-yil noyabr oyida Singapur akademik halollikka bag'ishlangan xalqaro forumga mezbonlik qildi. Tadbir yetakchi olimlar, o'qituvchilar va ekspertlarni raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellektning akademik muhitga ta'sirini muhokama qilish uchun bir joyga to'pladi. Asosiy mavzular quyidagilar bo'ldi:

- Plagiatni tekshirish tizimlarini joriy etish.
- Akademik nashrlarning shaffofligini oshirish.
- Etik amaliyotlarni targ'ib qilish uchun ta'lim kampaniyalarini boshlash.

YuNESKO dunyodagi akademik halollik holati bo'yicha keng qamrovli tahliliy hisobot e'lon qildi. Ushbu hujjat akademik qoidabuzarliklarning ortib borayotganini yoritadi va hukumatlar hamda ta'lim muassasalari uchun quyidagi tavsiyalarni taklif etadi:

- Akademik axloq bo'yicha ta'lim tashabbuslarini kuchaytirish.
- Akademik halollik bo'yicha yagona xalqaro standartlarni ishlab chiqish.
- Plagiatni aniqlash va oldini olish uchun texnologiyalardan foydalanish.

Buyuk Britaniyada akademik etika bo'yicha yangi dasturlar joriy etilishi

Buyuk Britaniyaning yetakchi universitetlarida 2024-yil noyabr oyida akademik etika bo'yicha keng qamrovli dasturlar ishga tushirildi. Ushbu dasturlar nazariy kurslar va amaliy seminarlarni o'z ichiga olib, talabalarning quyidagi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan:

- Mustaqil ilmiy tadqiqot olib borish.
- To'g'ri iqtibos keltirish va manbalarni rasmiylashtirish [1]

METODOLOGIYA.

[1] Turnitin. (2024). Akademik yaxlitlik bo'yicha global hisoboti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qatar amiri tashabbusi bilan ta’sis etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mukofotning Toshkent shahrida o‘tkazilgan taqdirlash marosimida “Ongi va qalbi bolalikdan „halollik vaksinasi“ bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ustuvor vazifamizdir. Bu borada BMTning Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O‘zbekistonda keng joriy etishdan manfaatdormiz”, — degan g'oyani ilgari surdi. "Halollik vaksinasi" orqali emlangan yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usi kuchli shakllanadi va bunday yoshlar yurt taraqqiyotining davomchilari hisoblanadi.

Halollik vaksinasi orqali tarbiyalashning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-ma'naviy immunitetni oshirish: Halol va vatanparvar insonlar har qanday yomon ta'sirlarga qarshi mustahkam turadi, jamiyat rivojida faol ishtirok etadi.

-vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish: Yoshlar vatanparvarlik ruhida tarbiyalansa, ular jamiyatga foydali bo‘lishni, vatan uchun xizmat qilishni o‘z burchi deb biladi.

-o'rnak bo‘lish: Yoshlarning axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash orqali kelajak avlodlar uchun halollik va vatanparvarlik namunasi yaratiladi.

"Halollik vaksinasi"ni amalga oshirish uchun quyidagilar muhimdir:

-ota-onalar va o‘qituvchilar halollikni shaxsiy misol orqali ko‘rsatishi.

-ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyaga e'tibor kuchaytirilishi.

-yoshlarni tarixiy qahramonlar va ularning vatanparvarlik ishlari bilan tanishtirish.

MUHOKAMA

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliyhuquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlar shular jumlasidandir. [2]

Shu asosda aholining, xususan, talaba-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rib kelinmoqda. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati va samaradorligini oshirish, oliy o‘quv yurtlariga qabul jarayonining shaffofligini ta’minlash borasida muayyan ishlar olib borilmoqda. So‘nggi uch yilda oliy ta’lim sohasiga oid 200 dan ortiq qonun hujjatlarining qabul qilinganligi, 6 ta oliy ta’lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy o‘quv yurtlarining yangidan tashkil etilganligi, buning natijasida yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 20 foizga oshganligi sohaga bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatmoqda.

Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kengaytirilib, “Korrupsiyasiz soha” loyihasi

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20- dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

amalga oshirilmoqda. Natijada, ta'magirlik va manfaatlar to'qnashuviga oid holatlarning oldi olinmoqda, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash ta'minlash imkoniyatlari ortmoqda. Zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Uning doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish, ushbu illatning har qanday ko'rinishiga barham berish, oliy ta'lim muassasalarida tajribali, halol, pok vijdonli, mas'uliyatli professor-o'qituvchi va xodimlar safini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

XULOSA

O'zimizga xulosa qilishimiz, kelajakni korrupsiyasiz birgalikda qurishimiz, buning uchun avvalo o'zimizni o'zimiz tarbiya qilishimiz, korrupsiyanining har qanday ko'rishnishini bartaraf qilish uchun birgalikda kurashishimiz zarurdir. Jamoatchilik mexanizmini nazoratini yanada 4 takomillashtirish orqali professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar hamda barcha xodimlarlarining o'z vazifalariga nisbatan mas'uliyatini kuchaytirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ogohligini yanada oshirish mumkin.

Bugungi kunda jamiyatimizda xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani, korrupsiya kabi illatlar kamayayotganligi,davlatimizniig iqtisodiy qudrati ortayotgani vatanparvarlik tuyg'usi bilan chambarchas bog'liqligini anglatadi va bularning negizida "Halollik vaksina"sining o'rni beqiyosdir .“Halollik vaksinasi” tushunchasiga hayotimiz davomida juda ko'p duch kelganmiz. Mansabdor shaxslar nutqlaridan tortib yo'l atrofidagi bannerlargacha "halollik vaksinasi- taraqqiyot garovi" kabi yoshlarni halollikka chorlovchi, vatanparvarlikka undovchi g'oyalar bilan to'ldirilgan. Birinchi o'rinda "halollik"nima? degan savolga javob topishimiz o'rinlidir. Halollik (insof) – insonning asosiy fazilatlaridan biri bo'lib, rostgo'ylik, printsiplarga sodiqlik, qabul qilingan majburiyatlarga sodiqlik, ishning to'g'ri ekanligiga subyektiv ishonch, inson boshqaradigan motivlarga nisbatan boshqalarga va o'ziga nisbatan samimiylikni o'z ichiga olgan axloqiy sifatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent-2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20- dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
3. I.A. Karimov .Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008, - 138 – 140 – bet.
4. Turnitin. (2024). Akademik yaxlitlik bo'yicha global hisobot.
5. YUNESKO (2023). Akademik yozuv va plagiatning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar. Parij: YUNESKO nashriyoti.
6. Qarshi davlat universiteti “Yangi o'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarning yoshlarga “halollik vaksinasi”ni singdirishdagi ahamiyati” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani Qarshi, 2024-yil 23-dekabr.
7. Volter. Dictionnaire philosophique, 1764. 165-bet.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak mukofoti”ning tantanali topshirish marosimidagi nutqi.
9. Jamoldinova S.N. “O'qituvchining konfliktalogik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati”. // Namangan davlat pedagogika instituti “Ta'lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali. 2024-yil 6-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37, 44-50 b.(13.00.01 № 37, 045044)

10. 15. Jamoldinova S.N. “Oliy ta’lim talabalarida konfliktologik kompetensiyani shakllantirish va uni rivojlantirish mexanizmlari”, Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muammolari va istiqbollari – respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2024- yil 27- noyabr, 116-122 betlar.